



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA KÓPAYTIRISH USULLARINING QÓLLANILISHI

Aralbayeva Xurshida O'ng'arbay qizi

Nukus davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 1-"G"
kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6340194>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 17- fevral 2022
Ma'qullandi: 22- fevral 2022
Chop etildi: 27- fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

*ta'lim, tarbiya, metod,
jadval, mnemonika, usul,
kadrlar*

ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda
óquvchilarning matematika darslaridagi kópaytirish jadvali
hamda kópaytirishning oson usullarini órgatish haqida,
boshlang'ich sinf óquvchilarining darsga qiziqishini oshirish
haqida sóz yuritiladi.*

"Farzandlarimiz bizdan kóra kuchli, dono, bilimli va albatta baxtli bólishlari shart". Bu bizning Birinchi Prezidentimiz Islom Abrug'aniyevich Karimovning asrga tatigulik sózlaridir. Darhaqiqat, yosh avlod qanchalik bilimli, dono bólsa, davlat shunchalik rivojlanadi. Bizdan keyingi avlod ham aqlli, barkamol va izlanuvchan bólad. Buning uchun esa biz boshlang'ich sinflardan boshlab, yaxshi ta'lim va tarbiya bermog'imiz lozim. Shu órinda ta'lim hamda tarbiya sózlariga qisqacha ta'rif berib ótaman. Biz bolalarga oddiygina gul ekish jarayonini yozma holda, qonun-qoidalar bilan tushuntirishimiz ta'lim hisoblanadi. Agarda shu gul ekish jarayonini amalda bajarib kórsatsak, bu-tarbiya berganimiz bólad.

Ózingiz ham bir óylab kóring, bizga ta'lim muhimmi, tarbiyami? Albatta, ikkalasini ham umumlashtirgan zamonaviy metodlar muhim. Yana bir misol keltiraman. Biz maktabda G'azal mulkning sultoni bólmish- Navoiy, matematika

asoschisi-Xorazmiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur kabi buyuk bobolarimizning asarlari, g'azallari, ularning qilgan buyuk amallarini emas, tug'ilgan yillarini, qayerda tug'ilganini yaxshi bilamiz. Aslida esa bizga ular merosining tub ma'nosi, mazmun-mohiyati muhimdir. Tug'ilgan yillarining ahamiyati unchalik muhim emas. Fikrlash bizdan, xulosa esa sizdan!

Bizning kundalik hayotimizda eng kóp uchraydigan va eng kóp duch keladigan fanimiz bu matematikadir. Har qadamimizda biz ózimiz bilmagan holda matematik amallarga murojaat qilamiz. Bir qarashda juda oddiy tuyiladigan vaqttni taqsimlash ham.

"Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bólib ósadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi",- deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. Yurtboshimiz bu gapni bejiz aytgan emas. Haqiqatan



ham, bolalarga, avvalo, matematikani o'rgatishimiz darkor. Buning uchun men Boshlang'ich sinflarda matematika darslarida kópaytirish usullarini oson o'rgatishga asoslangan metodlar tuzishga harakat qildim. Hozir shu haqida ma'lumotlar berib ótaman.

Eng avvalo, 9 karra jadvalini oson yodlashni o'rgatib ótishim joiz. Buning uchun 9 karra jadvalini yozib chiqamiz. Javobini esa yuqoridan pastgacha 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9, kabi yozib chiqamiz, keyin pastdan tepaga 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9 kórinishida yozamiz. Qarabsizki, 9 karra jadvali tayyor. Yodlash ham juda oson.

Endi barmoqlar yordamida kópaytirishni kórib chiqamiz. 6dan 10gacha kichik barmog'imizdan boshlab belgilaymiz. Óng qólimizni ham, chap qólimizni ham. Ikkalasida bir xil bóladi. 7×8 ni hisoblaydigan bólsak, chap qólimizdan 7ni, óng qólimizdan 8ni bir-biriga tekgizamiz. Qólimizning pastki qismida 5ta barmoq bor. Har bir barmoq 10ni bildiradi. 10ni 5ga kópaytirsak 50ga teng bóladi. Yuqoridagi barmoqlarimiz: chapda 3ta, óngda esa 2ta. Bularni kópaytirsak 6. Va nihoyat, 50ga 6ni qóshsak 56. Javob: 56

1. 6×6 Buni hisoblash uchun 6deb belgilab olgan barmoqlarimizni bir-biriga tutashtiramiz. Pastda barmoq qolmadi. Demak, 2ta pastdagi barmoq 20ni bildiradi. Tepada har bir qólimizda 4tadan barmoq qoldi. $4 \times 4 = 16$. 20ga 16ni qóshsak 36ga teng bóladi. Javob: 36

2. 8×9 Bunda kópaytirishimiz kerak bólgan barmoqlarimiz 8 va 9. Ularni tutashtiramiz. Pastda 7ta barmoq, bu 70ga teng. Tepada óng qólimizda 1ta, chap qólimizda 2ta, kópaytirsak 2. Sónggi

qadam, 70ga 2ni qóshsak 72 hosil bóladi. Javob: 72

3. 7×6 Berilgan sonli barmoqlarimizni tutashtiramiz. Pastda 3ta barmoq bu 30ga teng. Yuqorida chap qólimizda 3ta, óng qólimizda 4ta. Kópaytirsak 12. Va nihoyat, ikkalasini qóshsak 42. Javob: 42

Menimcha, bolalar endi bu usulda kópaytirishga umuman qiynalishmaydi. Aksincha, kóplab yutuqlarga erushishadi. Karra jadvaldan keyingi bosqich bu ikki xonali sonlarni kópaytirish bólib hisoblanadi. Faqat shartlari bor, ónlar xonasi bir xil bólishi kerak ya'ni 56×57 , 28×22 , 17×13 kabi. Ikkinchi xonadagi sonlar yig'indisi 10ga teng bólishi kerak. 23×27 , 34×36 , 71×79 kabi. Demak, birinchi shart, ónlar xonasi bir xil, birlar xonasidagi raqamlar yig'indisi 10ga teng bólishi kerak. Xuddi shunday kórinishdagi kópaytirishlarni hech qanday qog'ozsiz, miyada hisoblashni o'rgatishimiz mumkin.

1. 37×33 ni hisoblab kóraylik. Tartib bóyicha 3dan keyin keladigan son 4. Xayolimizda 3ni 4ga kópaytiramiz va yozamiz. Birlar xonasidagi sonlarni esa óz-ózigacha kópaytirib yozib qóya qolamiz. Javob: $37 \times 33 = 1221$

2. 56×54 ni hisoblaymiz. 5dan keyingi raqam 6. Kópaytirsak 30, 6ga 4ni kópaytirsak esa 24. Javob: $56 \times 54 = 3024$

3. 21×29 Agar 1soni birlar xonasida keladigan bólsa, oldiga 0 sonini qóshib yozamiz. Hisoblashni boshlaymiz. 2dan keyingi son 3, kópaytirsak 6. 1ga 9ni kópaytirsak 9 bóladi. Lekin yuqoridagi qoida bóyicha 0ni qóshib yozamiz. Javob: $21 \times 29 = 609$

Boshlang'ich sinflar uchun muammo tug'diradigan kópaytirishlardan yana biri bu 11ga kópaytirish bólib hisoblanadi. Endi



istalgan sonni 11ga kópaytirish texnikasini kórib chiqamiz. Masalan, 63ni 11ga kópaytiradigan bólsak, 6va 3ning ózini ikki tomonga yozib olamiz. Ularning ya'ni 6va 3ning yig'indisini, 9ni órtaga yozamiz. Kórib turganimizdek, bizda 693 soni hosil bóldi. Javob: $63 \times 11 = 693$

- | | |
|-------------------------|-------------------------|
| 1. $63 \times 11 = 693$ | 4. $25 \times 11 = 275$ |
| 2. $24 \times 11 = 264$ | 5. $34 \times 11 = 374$ |
| 3. $71 \times 11 = 781$ | 6. $53 \times 11 = 583$ |

Bu usullarning barchasi boshlang'ich sinf óquvchilari uchun juda oson hamda qiziqarli bólib hisoblanadi. Óquvchilarning darsga qiziqishi va amallarni oson bajarish imkoniyatini oshiradi. Órganilgan bilimlarni órganib-órganib tashlab qóyish emas, balki ularni takrorlab miyamizga singdirishimiz lozim. Buning bir qancha usullari mavjud. Hozir órgatmoqchi bólgan usulimni men "MNEMONIKA" darslarida órgangan edim. Bu menga katta-katta muvaffaqiyatlar olib kelgan. Bu usuldan foydalanish uchun bizga qalin, rangli karton qog'ozlar kerak bóladir. Qog'ozlarni $3 \times 4 \text{ sm}^2$ qilib bólaklab chiqamiz.

Keyin old tarafga biron-bir savol yoki ózimizga eslab qolish qiyin bólgan narsalarni savol tariqasida yozamiz. Orqa tarafga esa javobini yozamiz. Shu tarzda davom ettirib, ózimizga kerakli savollar tóplamini tuzib olamiz. Savollar taxt bólgach, ularni ketma-ketlikda óqiy boshlaymiz. Agar savolga javob bera olsak, qog'ozchani savollarning eng oxirigisi qilib

qóyamiz. Javob bera olmasak, savollarning órtasiga solib qóyamiz. Nega deganda, xuddi shu savol bizga yana aylanib keladi. Shu payt yana yodimizga tushadi. Bu mashg'ulot bilan kuniga bir-necha marta shug'ullanishimiz mumkin. Lekin, har kuni yana boshqa savollarni kiritib borishimiz lozim. Agar shu mashg'ulotni erinmasdan takrorlab, davom ettirsak, ózimiz bilmagan natijalarga erishishimiz mumkin bóladir.

Xulosa qilib aytadigan bólsak, boshlang'ich sinflarda bu kabi metod va usullardan foydalanish dastlab óquvchilarning fanga bólgan qiziqishini orttiradi, óz ustilarida ishlay olish qobiliyatini uyg'otadi, mustaqil fikrlashga, amallarni oson va tez bajarishlariga yordam beradi. Ularni topqir va ziyrak bólishga undaydi. Haqiqatan ham, ikki xonali sonlarni bir zumda, hech qanday qog'ozsiz, miyada hisoblashning ózi bir sehirgarlik. Bularni ózlashtirgan óquvchida, albatta, óziga bólgan ishonch hosil bóladir. Bizga keragi ham shu, aslida. Shunday ekan, biz yosh kadrlar, bóljak boshlang'ich sinf óqituvchilari bolalarga darslarni tushuntirishda siyqasi chiqqan metodlardan emas, balki, XXI asr axborot texnologiyalar rivojlanib borayotgan davrda yashayotgan bolalarga xos, zamonaviy, kreativlikni óziga singdirgan metodlardan foydalanib dars ótishni órganishimiz lozim. Zero, ertangi kunimiz yosh avlodga qanday ta'lim-tarbiya berishimizga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumayev M.E, Tadjyeva Z.G. "Boshlang'ich sinflarda matematika óqitish metodikasi", -T., "Fan va texnologiya", 2005.
2. Bikboyeva N.U. va boshqalar, "Boshlang'ich sinflarda matematika óqitish metodikasi", -T., "Óqituvchi", 1996
3. Rabig'a Shabatova, International Journal of Integrated Education, ISSN: 2620-3502, 2022-yil, 86-88 b
4. ziyonet.uz
5. [fasebook.com](https://www.facebook.com)